# XUSUSIY DISKURS ATAMALARINING SEMANTIK, STRUKTUR, PRAGMATIK JIHATLARI

**Olimov Zuhrobiddin**
*Andijon davlat chet tillari instituti*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada diskurs − ma'lum bir ijtimoiy-madaniy an'anada ratsionallikning hukmron turi bilan tartibga solinadigan inson ongi mazmunini obyektivlashtirishning og'zaki ifodalangan shakli ekanligi, hozirgi vaqtda diskurs falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda faol qo'llaniladigan polisemantik tushunchaliligi, diskurs tushunchasi nutqning ma'lum sohasi hamda maxsus leksikaga ega bo'lgan nutqiy faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi, diskursning o'ziga xosligi , ma'lum semantik xususiyatlarda namoyon bo'lishi haqida fikrlar bildiriladi.*

***Аннотация.*** *В данной статье дискурс представляет собой устно выраженную форму объективации содержания человеческого сознания, которая регулируется доминирующим типом рациональности в определенной социокультурной традиции. В настоящее время дискурс представляет собой многозначное явление, активно используемое в философии, социологии. В лингвистике, культурологии и других общественных науках понятие дискурса тесно связано с конкретной областью речи и речевой деятельности, обладающей особой лексикой, своеобразием дискурса и его проявлением в определенных смысловых особенностях.*

***Abstract.*** *In this article, discourse is an orally expressed form of objectification of the content of human consciousness regulated by the dominant type of rationality in a certain social and cultural tradition, and currently discourse is a polysemantic that is actively used in philosophy, sociology, linguistics, cultural studies and other social sciences. the concept of discourse is closely related to a specific field of*

*speech and speech activity with a special lexicon, the uniqueness of discourse, and its manifestation in certain semantic features*

***Kalit so'zlar:*** *diskurs, sistema, kognitiv, tipologiya, lingvokulturologik va pragmatik jihatlar, paradigma, instruktiv diskurs, kompleks shakllar.*

***Ключевые слова:*** *дискурс, система, когнитивный, типология, лингвокультурный и прагматический аспекты, парадигма, учебный дискурс, сложные формы.*

***Key words:*** *discourse, system, cognitive, typology, linguistic-cultural and pragmatic aspects, paradigm, instructional discourse, complex forms.*

Hozirgi kunda bilimlarni diskursiv, kognitiv, tipologik, lingvokulturologik va pragmatik jihatlarini noyob sistema tarzida lingvistik namoyish etish muammolari til nazariyasi paradigmasida eng dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaralsa, eng kam o'rganilgan kognitiv-semiotik hodisalardan biri − instruktiv diskursdir. Instruktiv diskurs haqida Abdurahmonova Nargiza quyidagicha ma'lumotlar beradi[1]: madaniyatning diskursiv kompleks shakllanishi sifatida uning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyat muloqotini turli jabhalarida namoyon bo'luvchi asosiy nutqlardan biri hamda jamiyat a'zolari uchun maksimal ahamiyatga ega bo'lgan, ularning hayotida muhim ko'rsatmalar sifatida gavdalanuvchi sohadir.

Tilshunoslikda diskurs bo'yicha turli tillarda tadqiqot olib borilgan bo'lib, ushbu sohaga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Biroq, eng samarali izlanishlar va yondashuvlar Yevropa tilshunosligining yirik vakillari G.Brown, G.Yule, A.Burns, H.Joyce, S.Gollin, G.Cook, M.Coulthard, N.Fairclough, J.Martin, M.Mc Carthy, J.Vehek, Yan Wu, Z.S.Harris[2]; rus

[1]Abdurahmonova N. Ingliz va o'zbek tillarida og'zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskurs. Fil.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2024. – B.11.

[2]Brown G., G. Yule. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983; Burns, A., Joyce, H., & Gollin, S. I see what you mean: Using spoken discourse in the classroom.

tilshunosligida esa N.D.Arutyunova, V.S.Grigoryeva, T.A.Deyk, A.F.Zotov, V.I.Karasik, R.A.Karimova, A.Ye.Kibrik, V.V.Krasnix, Ye.S.Kubryakova, M.L.Makarov, O.L.Mixalyeva, L.Dj.Filips, M.V.Yorgensen, V.Ye.Chernyavskaya, R.Yakobson, Ye.Yu.Kondrashkina, G.P.Burova[3] kabi olimlarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham ayrim yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Xususan, J.Sh. Safarov, L.R. Raupova, qardosh olimlardan A.B. Tumanova, V.K. Sobirova, G.K.Odilovalar tilshunoslikda diskursiv tahlil borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar[4].

Diskurs (qadimgi *lotin tili.* discursus − mulohaza, bahs; asli − aylanib yurish,

---

Sydney: National Center for English Language Teaching and Research, Macquaire University, 1996; Cook G. Discourse. Oxford: Oxford University Press, 1989; Coulthard, M. Advances in Spoken Discourse Analysis. London: Routledge, 1992. – 273 p.; Fairclough N. Language and power. London and New York: Longman, 1989. – 259 p.; Martin J. Coherence in texture. The Handbook of Discourse Analysis: Blackwell, 2001. 35-53 p.; Mc Carthy, M. Discourse analysis for language teachers. Cambridge: CUP, 1991; Vehek J. On the problem of written language // Prague linguistic circle: collection of articles / comp., Ed. and foreword. N. A. Kondrashova. –M.: Progress, 1967. 524-535 p.; Yan Wu. Conversation Analysis – A Discourse Approach to Teaching Oral English Skills. International Education Studies; Vol. 6, No. 5: Canadian Center of Science and Education, 2013. 87-91 p.; Harris Z. S. Discourse Analysis // Language. 1952. No. 8. 1-30 p.

[3]Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н.Ярцева. –М., 1990. – С.136-137; Белозерова Н.Н. Парадоксы дискурса [Электронный ресурс]. URL: http://frgf.utmn.ru/last/No13/text04.htm; Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивные аспекты. – Тамбов: Изд-во ТГТУ, 2007. – С. 288; Дейк Т. А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М., 1989. – С. 308; Зотов А. Ф. Современная западная философия. Изд-е 2-е. – М.: Высшая школа, 2005. – С. 781; Карасик В. И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград, 2000. – С. 5-20. Каримова Р. А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов). – Уфа: Изд-во БашГУ, 1991. – С.156; Кибрик А.Е. Моделирование языковой деятельности в интеллектуальных системах. – М., 1987. – С.280; Красных В.В. Основы психолингвистики и теории коммуникации: Курс лекций. – М., 2001. – С. 270; Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения [Электронный ресурс]. URL: http://www.philology.ru/linguistics1/kubryakova-01.htm.; Макаров М. Л. Основы теории дискурса. –М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 280; Михалева О. Л. Дискурс как объект исследований [Электронный ресурс]: курс лекций. URL: http://rus-lang.isu.ru/education/discipline/philology/disrurs/material/13/; Филипс Л. Дж., Йоргенсен М.В. Дискурс анализ. Теория и метод / пер. с англ. Изд-е 2-е, испр. Х.: ГуманитарныйЦентр, 2008. – С.624; Чернявская В. Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономическогодискурса: сб. науч. тр. – СПб.: –С. -Петерб. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С.11-22; Якобсон Р. Тексты, документы, исследования / отв. ред. Х. Баран, С. Гиндин. – М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 1999. –С.918; Кондрашкина Е.Ю. Прагмалингвистические характеристики русскоязычного инструктивного дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2018; Бурова Г.П. Фармацевтический дискурс как культурный код: семиотические, прагматические и концептуальные основания. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ставрополь, 2008.

[4]Сафаров Ж.Ш Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка): Дисс. канд. филол. наук. – Самарканд: 2000. – С.175; Раупова Л.Р Диалогик дискурсдаги нопредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол.фан д-ри. дисс. – Тошкент, 2012. – В.220; Туманова А.Б. Языковая картина мира в художественном дискурсе писателя: Автореф. дисс. докт филол. наук. – Алматы, 2000. –С. 40; Собирова В.К Литература кыргызского зарубежье как часть общего социально культурного контекста Кыргызыстана (дискурсивно-концептуальный анализ): Автореф. дисс. докт филол. наук. Бишкек, 2013. – С. 50; Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глюттоник дискурс мисолида). Дисс. докт филол. наук. – Тошкент, 2020. –Б. 270.

shov-shuv, manevr) − polisemantik atama bo‘lib, umumiy ma’noda nutq, lisoniy jarayonlar, ularning olam lisoniy manzarasi bilan munosabatini bildiradi[5].

Diskurs − bu ma’lum bir ijtimoiy-madaniy an’anada ratsionallikning hukmron turi bilan tartibga solinadigan inson ongi mazmunini obyektivlashtirishning og‘zaki ifodalangan shakli. Hozirgi vaqtda diskurs falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda faol qo‘llaniladigan polisemantik tushunchadir[6]. Lingvistik nuqtayi nazardan diskurs nutqiy faoliyatning keng tarqalgan lisoniy modellar bilan birga shakllanadi, u so‘zlovchining turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda dunyoqarashi, olam lisoniy manzarasi, mafkurasi, qarash va yondashuvlarini aks ettiruvchi oyna sanaladi. Ingliz tilshunosligida diskurs atamasi muloqotda gap mazmunidan kengroq narsani ifodalovchi, mazmuniga ko‘ra so‘zlovchi “men”i qo‘llanishi bilan bog‘liq, tashkiliy shakliga ko‘ra kommunikantlarning o‘zaro interfaol munosabatini ifodalovchi nutq tushuniladi. (Stubbs, 1983). Bu yondashuv diskursni struktur va formal lingvistika pozitsiyasidan turib baholaydi.

Diskurs atamasi ko‘plab monografiya, darslik, qo‘llanma hamda maqolalarda atroflicha izohlangan[7]. Xususan, Ye.D.Isayeva “Понятие дискурса в современной лингвистике” sarlavhali maqolasida ushbu tushunchaning bir necha yillardan buyon dolzarb masala sifatida qaralayotganini ta’kidlaydi[8]. Uning ta’kidlashicha, diskurs lingvistik kategoriya sifatida murakkab va ko‘p qirrali tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Uning o‘ziga xosligi bir tomondan, muloqot va nutq, lisoniy axloq o‘rtasida

---

[5] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%80%D1%81
[6] https://gtmarket.ru/concepts/6987

[7] Арутюнова Н.Д. Дискурс / Н.Д.Арутюнова // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 137; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И.Карасик. – М., 2004; Кибрик А.А. Дискурс / А.А.Кибрик, П.Б.Паршин // Энциклопедия «Кругосвет» http://www.kmgosvet.ru /articles/82/1008254/1008254a9.htm; Шмелева Т.В. Модель речевого жанра / Т.В.Шмелева. – Саратов, 1999; Ван Дейк Т.Д. Язык. Познание. Коммуникация. − М., 1989; Демьянков В.З. Когниция и понимание текста // Вопросы когнитивной лингвистики, 2005. −№ 3. −С. 5-10; Греймас А.Ж., Курте Ж. Семиотика. Объяснительный словарь теории языка. − М., 1983; Квадратура смысла. Французская школа анализа дискурса. −М., 1999; Кубрякова Е.С. О типах дискурсивной деятельности // Вестник МГЛУ., 2003. − Выпуск 478. − С. 5-10.

[8] Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике // http://vii.sfu-kras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009

namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnda aks etishi bilan oraliqlik xarakteriga egaligi bilan izohlanadi. Tabiatiga ko‘ra, diskurs nazariyasi turli ijtimoiy gumanitar fanlarni birlashtiradi, uning yordamida zamonaviy muloqotda paydo bo‘ladigan qator muammolar yechiladi. Tadqiqotlarda diskursiv yondashuv nutqiy muloqot bilan inson, madaniyat, jamiyat orasidagi aloqani o‘rganish imkonini berishi, shuningdek, kommunikativ jarayonlar haqidagi tadqiqotlarning yangi imkoniyatlarini ochishi ta’kidlanadi[9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, “diskurs” tushunchasi fanlararo xarakterga ega: xorijiy tillarni o‘rganish metodikasining nazariy asoslari sanalgan lingvistik, psixologik, madaniyatshunoslik va pedagogik fanlarda o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Demak, diskurs – ancha murakkab va ko‘p qirrali fenomen, shu sababli bu tushunchani bitta ta’rif bilan izohlab bo‘lmaydi.

DISKURS – ekstralingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan hosil qilingan voqeiy aspektdagi bog‘li matn. Unda nutq uni hosil qiluvchilarning kognitiv jarayoni bilan bog‘liq ravishda maqsadli ijtimoiy xususiyat kasb etadi[10]. Diskurs bu “voqealarga to‘la hayot”. Shu sababli ushbu atama, “matn” atamasidan farqli o‘laroq eski matnlarga nisbatan ishlatilmaydi. Chunki bunday matnlar jonli hayot bilan bevosita bog‘lana olmaydi. Diskurs nutqqa paralingvistik (mimika, jest) xususiyatlarni ham olib kiradi. Ushbu belgilar nutqqa uning asosiy vazifalaridan biri – suhbatdoshga his-tuyg‘uni (ritmik, referent, semantik, hissiy-bo‘yoqdor,) yetkazishga, illokutiv kuch (undov jestlari, ishontirish) qo‘shishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс / Н.Д.Арутюнова // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 137;

2. Лингвистический энциклопедический словарь, 2012

[9] Кўрсатилган манба.

[10] Лингвистический энциклопедический словарь, 2012 // https://slovar.cc/rus/lingvist/1465730.html

3. Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике

4. Кубрякова Е.С. О типах дискурсивной деятельности // Вестник МГЛУ., 2003. − Выпуск 478. − С. 5-10.

5. Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глюттоник дискурс мисолида). Дисс. докт филол. наук. – Тошкент, 2020. – Б. 270.

6. Каримова Р. А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов). – Уфа: Изд-во БашГУ, 1991. – С.156

**7.** Чернявская В. Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономическогодискурса: сб. науч. тр. – СПб.: –С. -Петерб. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С.11-22;

## AXBOROT RESURSLARI

1.https://ya.ru/search/?text=%D0%A5%D1%83%D1%81%D1%83%D1%81search_source=yaru_desktop_common&search_domain=yaru

2.http://kemschool24.ru/docs/%D0%9A%D1%83%D1%80%D1%81%D0%BE%D0 -(Studia%20philologica) -2020.pdf?ysclid=m16iej9s9x757453276

3.https://cyberleninka.ru/article/n/diskurs-ni-izo-lashga-b-lgan-turlicha-yondashuvla

4.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%80%D1%81

5.https://gtmarket.ru/concepts/6987

6.https://slovar.cc/rus/lingvist/1465730.html